



ТОПОНОМИКАНИНГ АСОСИЙ БО'ЛИМЛАРИ ВА УЛАРИНИНГ ТАРИХ УЧУН АҲАМИЯТИ

Jumayev Mustaf o'g'li
Termiz davlat unversiteti
Jahon tarixi kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya: Jamiyat tuzumidagi o'zgarishlar, ya'ni ijtimoiy tuzumning o'zgarishi, davlatning milliy siyosati hududlarning qaysi davlatlarga mansubligi, davlat siyosati, mamlakatlarda qaysi xalq qanday mavqega egaligi, geografik kashfiyot, tadqiqotlarning kimlarga mansubligi geografik atama va nomlarda o'z ifodasini topadi.

Kalit so'zlar: Toponomika, oronimlar, gidronimlar, . O'simlik va hayvonlarga bog'liq nomlar, Foydali qazilmalarga bog'liq nomlar, Xo'jalik buyumlaridan olingan nomlar, Afsonaviy va diniy nomlar

Geografik nomlarning kelib chiqishiga asosiy sabab ularga bo'lgan ehtiyojdir, bular insoniyat paydo bo'lgan davrdan boshlab kerak bo'la boshlagan. Dastlabki geografik nomlar juda oddiy bo'lgan. Masalan, tog', daryo, ko'l va boshqalar. Joy nomlari turli-tuman, ajoyib va g'aroyibdir, soni esa juda ko'pdir. Mavjud geografik nomlarning kelib chiqishiga qarab shartli ravishda quyidagi guruhlariga bo'lish mumkin:

1) Joyning holati, hosiyati, er yuzasi va iqlimiga bog'liq nomlar. Er yuzasida «shimoliy», «janubiy», «g'arbiy» va «sharqiy» ma'nolarni anglatadigan burun, orol va daryolar bor. Masalan, Nordkap (Shimoliy burun), Xokkaydo (Shimoliy orol) va boshqalar.

Joyning havosi va quyoshga nisbatan holatini ifodalovchi nomlar Masalan, Kungay Olatov, Terskayi Olatov, Sovuqdara, Chili (sovuq). Yer yuzasi rel'efiga bog'liq nomlar, ayniqsa ko'p. Masalan, Qoraqurum – suvsiz, o'simliksiz, xunuk tosh uyumlari demakdir.

Nurash natijasida hosil bo'lgan relyef shakllari: Odamtosh, Qo'ytosh, Teshiktosh; tor daralar: Zindonsoy, O'radaryo deb atalgan. Geografik ob'ektlarning ko'rinishi xususiyatidan kelib chiqqan nomlar: Beshpanja, Og'zikeng, Ichaksirt, Tumshuqcho'qqi va boshqalar.

2. Suv obyektlariga bog'liq nomlar. Daryo, ko'l va quduqlar katta-kichikligiga, suvning rangi, sho'rliigi, tozaligi, chuqurligiga qarab turlicha nomlangan. Suv tiniq



va toza bo'lsa Oynako'l, Oynabuloq, chuqur va tiniq bo'lsa Ko'ksuv, qordan boshlangan suvlar Oqsuv, loyqarog'i Ayronko'l, Sarisuv deb atalgan. Daydi suv Farg'onada Tentaksoy deyilgan. Surxondaryoda ham Tentaksoy bor. U bahorda toshib, qirg'oqlarini o'piradi, emiradi, yozda esa suvi qurib qoladi.

Suv ob'ektlarining suvi sho'r yoki nordon bo'lsa, Sho'rquduq, Achchiqko'l, Sho'rbuloq, Sho'rsuv, Sho'rob deb atalgan. Yer ostidan suvlar fontansimon otilib chiqsa – Qaynarbuloq, agar buloqlar suvi issiq va mineralli bo'lsa Issiqsuv, Obigarm, Obirahmat, Qo'tirbulok, Arashon deyilgan.

3. O'simlik va hayvonlarga bog'liq nomlar. Bunday nomlar keng tarqalgan. Masalan, Konibodom (asli Kandibodom), ya'ni «Bodom shahri» deb Bobur mirzo yozib ketgan. Amudaryoda Maymunto'qay nomli chakalakzor bor. G'arbiy Evropadagi Shvarsvald («Qora o'rmon»), Janubiy Afrikadagi Drakon tog'lari (Drakon – o'simlik), Shimoliy Amerikada Florida (ko'kalamzor), Janubiy Amerikada Braziliya (daraxt nomi), Kokos orollari (Yong'oq), Sharqiy Yevropada Bukovina (buk o'simligi), O'zbekistonda Jiydabuloq, Archazor, Chilonzor, Olmazor kabi nomlar bor. Xalq geografik ob'ektlarni alohida xususiyatlarini e'tiborga olib qo'ygan nomlar ham bor. Nom berishda odam va hayvonlarni alohida a'zolariga e'tibor bergan. «Og'zi», «burni», «qulog'i», «shoxi» va boshqalar.

4. Foydali qazilmalarga bog'liq nomlar. Bunday nomlarning bir qismi foydali qazilmalar ochilgunga qadar berilgan, masalan, Oltinbel, Kumushkon. Bir qismi esa konlar ochilgandan keyin berilgan. Masalan, Tuzkon, Sharg'un, Oqtosh, To'da, Toshko'mir, Moylisuv, Moyliko'l – Qirg'izistonda, Jezqazg'an, Temirtau – Qozog'istonda, Nebitdog' – Turkmanistondadir.

5. Kasb-hunardan olingan nomlar. Bunday nomlar O'zbekistonda ayniqsa keng tarkalgan; Bo'yoqchi, Sovungar, Buyrachi, Chorvador, Paxtakor, Egarchi, Pichoqchi, Tokchilik, Cho'ponbozor, Qalandarxona, Cho'yantumshuq, Degrez, Dukchi va hokazolar.

6. Xo'jalik buyumlaridan olingan nomlar. Xo'jalik buyumlari nomlari xam geografik nomlarning kelib chiqishida faol qatnashgan. Masalan, qozon so'zi turkiycha bo'lib, ruslar, ukrainlar, belaruslar, bolgarlar tomonidan qabul qilingan. Qozon so'zidan kelib chiqqan bir qancha nomlar mavjud. Qozon shahri – Tataristonda, Qazanjik – Turkmanistonda, Qazonbuloq – Ozarbayjonda, Qozonsuv – shimoliy Kavkazda, Qazonlik – Bolgariyada va hokazo.

7. Xalq, qabila va urug'lar bilan bog'liq nomlar. Toponimiyada etnotoponimlar deb ataladi. Bunday nomlar tarixiy davrlarda xalqlarning qaerlarda yashaganligidan va o'zaro aloqalaridan guvohlik beradi. Turkiston hududida etnotoponimlar juda



ko'plab uchraydi. Masalan, Ayranchi, Arab, Asaka, Baliqchi, Boyovut, Barlos, Bo'ka, Durmon, Baliqchi va boshqalar. Xalq, qabila va urug'larga bog'liq nomlar boshqa o'lkalarda ham keng tarqalgan. Xususan, Arabiston yarim oroli, Chukotka yarim oroli va boshqalar. Hozir mustaqil bo'lgan deyarli hamma respublikalar nomlari muayyan xalq nomidan olingan. O'zbekiston, Qirg'iziston, Qozog'iston va boshqalar.

8. Aholining ijtimoiy ahvolidan kelib chiqqan nomlar. Bu nomlar ma'lum hududda yashovchi aholining ijtimoiy strukturasi ifoda etadi. Bunday nomlar O'zbekistonning deyarli hamma qishloq va shaharlarida uchraydi. Misol, devonxona, qalandarxona, darveshxona va boshqalarni ko'rsatish mumkin. Aholini ijtimoiy axvolini ifodalovchi nomlar boshqa mamlakatlar hududida ham keng tarqalgan. Masalan: Belarusda «Besxlebach» (Nonsiz), «Koroyed» («Po'stloqxo'rlar»), «Moxoyed» («Moxxurlar») va boshqalar.

9. Shaxslarning ismi –famiyalariga qo'yilgan nomlar. Dunyo va xaritalarda bunday nomlar juda keng tarqalgan, ularning ko'pchiligi jasur sayyohlar, olim va dengizchilarni, shoir va yozuvchilarni, davlat va jamoat arboblari nomlariga qo'yilgan. Odam ismi bilan shaharlar (Vashington, Vellington, Nikolaev), davlatlar (Boliviya, Kolumbiya), hatto qit'alar (Amerika) atalgan.

10. Afsonaviy va diniy nomlar. Dunyo xaritasida afsonaviy va diniy nomlar ham ko'plab-uchraydi. Misol qilib O'sh shahri yaqinidagi Taxti Sulaymon, Amudaryodagi Duldul o'tgan (Hazrati Alining uchar oti daryoning shu joyidan sakrab o'tgan emish, Ohangarondagi Ashning qoyasi, Sirdaryodagi Farhod qoyasi, Farg'ona vodiysidagi Shohimardon, Toshkentdagi Kaykovus arig'i, Turkmaniston chegarasidagi Zulfiqor yo'lagi (Alining qilichi chopgan dara), Shri Lankadagi Odamoto cho'qqisi (go'yo Odam alayhisalom o'sha yerda osmondan tushgan emish) va boshqalarni kursatish mumkin. Afsonaviy nomlar orasida xayoliy va faraziy nomlar, ya'ni biror voqea yoki mish-mish gaplar sababli bor deb taxmin qilingan. Aslida mutlaqo bo'lmagan joylarning nomlari ham uchraydi: Ya'juj - Ma'juj yeri, Saddi Iskandar, Ko'hiqof, Sannikov yeri va hokazo.

11. G'aroyib nomlar. Dunyo xaritasida hazilnoma, kulgili: yoki vahimali nomlar ham uchraydi. Masalan, Angliyada - «Rahming kelsin», «So'qir kuyovlar», «Qurbaqalar, «Kalamushkala», «Zo'r muhabbat», «Ko'rinmay qoldi», «Piyanistaning tavbasi» nomli shaharlar, Italiya va Uralda «It g'ori», Amerikada «Ajal vodiysi», Eronda «Dashti noumid» kabi nomlar bor.

12. Migratsion nomlar. Bu geografik nomlarning bir hududdan ikkinchi hududga olib kelinishi. Bunday jarayon ikki yo'l bilan sodir bo'ladi.



1) Aholi migratsiyasi natijasida eski nomlar to'g'ridan-to'g'ri yangi joylarga ko'chiriladi. Masalan, Amerika qit'asida Evropadan ko'chirib kelingan ko'plab joy nomlari uchraydi.

2) Bir hududni ikkinchi hududga o'xshatish natijasida kelib chiqqan nomlar. Masalan, Venesuela mamlakatining nomi «kichik Venetsiya» ma'nosini anglatadi.

13. Xato nomlar. Dunyo xaritasida mazmuniga mos kelmaydigan haqiqatga asoslanmagan geografik nomlar ham uchrab turadi. Masalan, Tinch okeanining nomi xatodir. Nomi «Tinch» bo'lgani bilan o'zi juda katta to'lqinlar, bo'ronlar makoni. Osiyo deb dastlab O'rta yer dengizining sharqiy sohillari tushunilgan. Bu nom asta-sekin umumlashib, Yaponiyagacha tarqalgan, Osiyo deganlarida asos bor. Osiyo «asu», «kun chiqar»-degan so'z.

14. Yangi zamon nomlari. Bunday nomlar dastlab sobiq Sovet ittifoqida, boshqa sotsialistik va ozodlkka erishgan mamlakatlarda vujudga kelgan. Oktabr to'ntarishidan so'ng K.Marks, F.Engels, V.I.Lenin, kommunistik partiya va sovet davlatining atoqli arboblari, inqilob, fuqarolar va II jahon urushlari qahramonlari, atoqli olimlar, adiblar (Al Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino, Ulug'bek, Navoiy, Lomonosov, Pushkin, Furqat, Hamza va boshqalar) nomlari bilan geografik ob'ektlar atalgan edi.

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng, sobiq Sovet davrida qo'yilgan ko'plab nomlar o'zgartirildi va milliy g'oya, mafkura hamda urf-odatlar, an'anlar va qadriyatlarga mos nomlar qo'yildi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki: o'z navbatida toponimlar tarix uchun ham bebaho manbadir. Geografik nomlar uzoq muddatli bo'lib, ma'lum hududdagi u yoki bu xalqning tili haqida guvohlik beradi. Nomlar ma'lum bir aholining hamjihatligi yoki tarqoqligiga ham bog'liqdir. Ibtidoiy jamoa tuzumi davrida nomlar juda kam bo'lgan, keyinchalik aholi paydo bo'lib, qo'yilgan nomlar ham ko'p vaqtlar o'tishi bilan boshqa nomlarga o'zgartirilib yuborilgan yoki butunlay yo'q bo'lib ketgan. Yozma manbalardagi toponimikaga oid ma'lumotlar tahlil qilinganda buni yaqqol ko'rish mumkin. Bu voqeani hozirgi vaqtda ham aniq ko'rishimiz mumkin. Ayrim qishloq va shaharlarning eski nomlari o'rniga yangi nomlar qo'yiladi, bu eski nom nima uchun yo'qotildi-yu, nima uchun yangi nom qo'yildi, buning sabablarini ham aniqlash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Qorayev S. "Toponomika" Toshkent-2006
2. Tursunov.S.N, Umarov I, Pardayev T. "O'zbekistonda toponomik nomlar va



3. ularning tarixi” 2017. “Surxon-nashr”
4. Tursunov S, To‘xtayev A. “Jarqo‘rg‘on” Toshkent-2009,?“Fan”
5. “O‘zbek tili toponimlarining o‘quv izohli lug‘ati”. T.Nafasov. T. 2007-y
6. Нафасов Т. Ўзбекистон топонимларининг изоҳли луғати. Тошкент, 1988.
7. Нафасов Т. Қишлоғингиз нега шундай аталган? Тошкент, 1989.
8. Турсунов Н. Сурхон воҳаси тоқчилари этник тарихидан // «Турон тарихи», Тошкент, 2008-йил, II қисм, 27-29 бетлар.
9. Турсунов С. Шеробод тарихидан лавҳалар. Денов,1993